

## AXBOROT XAVFSIZLIGI FANI BO'YICHA RIVOJLANTIRUVCHI O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARINI TASHKIL ETISH

**Boqiyeva G.**

*2-son kasb hunar maktabi*

*Informatika o'qituvchisi*

*Tel: (91) 449-47-79*

**Annotatsiya:** Axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, dars jarayonida rivojlantiruvchi o'qitish didaktik asoslaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

**Kalit so'zlar:** axborot, axborot xavfsizligi, axborot xavfsizligini ta'minlash, rivojlantiruvchi ta'lim, didaktika.

Umumjahon axborot globallashuvi jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat mamlakatlar iqtisodiyoti va boshqa sohalariga joriy etish, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta'minlashni ham taqozo etayotir. O'zbekiston axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro xavfsizlik tizimiga Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib qo'shildi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

Ma'lumotlar uzatish, telekommunikatsiya tarmoqlari, teleradioefir hamda axborot tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini yuritish;

Axborot xavfsizligiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarining yaratilishini tashkil qilish va bunda ishtirok etish;

Axborot tizimlari komplekslari, resurslari va ma'lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta'minlash;

Davlat organlarining axborot tizimlari va resurslari axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko'maklashish;

Davlat axborot tizimlari va resurslarining axborot xavfsizligini ta'minlash yuzasidan monitoring natijalari to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasiga belgilangan tartibda taqdim etish;

Telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatorlari va provayderlari bilan hamkorlik qilish, davlat organlarining kompyuter va axborot texnologiyalaridan

foydalanish sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish masalalari bo'yicha birgalikdagi ishlarini tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;

Internetning milliy foydalanuvchilarini Internet tarmog'i milliy segmentida axborot xavfsizligiga paydo bo'layotgan tahdidlar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish, shuningdek axborotlarni muhofaza qilish bo'yicha konsultatsiya xizmatlari ko'rsatish;

Qonun buzuvchilarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda, axborotlar makonidagi ruxsatsiz yoxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilishda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish;

Internet tarmog'i milliy segmentida axborot xavfsizligi hodisalarining oldini olish bo'yicha o'zaro amaliy ishlarni tashkil etish maqsadida axborot xavfsizligi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Axborot xavfsizligini ta'minlash – bu foydalanuvchining axborotlarini himoyalashga quyilgan me'yor va talablarni bajarishidir. Axborot xavfsizligi esa bu axborot foydalanuvchilariga va ko'plab axborot tizimlariga zarar keltiruvchi tabiiy yoki sun'iy xarakterga ega tasodifiy va uyushtirilgan ta'sirlardan axborotlarni va axborot kommunikatsiya tizim ob'ektlarining himoyalanganligidir.

Zamonaviy ta'lim sharoitida talabalar fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olish, tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish, mazmunini tushunish va amaliy faoliyatga bog'lash, amaliy mashqlar va tajribalar o'tkazib borish, mustaqil qaror qabul qilish, yangiliklar topish (izlanish) ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasini axborot xavfsizligi fani doirasida qo'llashning mohiyati talabaning rivojlanishi o'qituvchi uchun ham, talabaning o'zi uchun ham asosiy vazifaga aylanganda sharoit yaratishdir. Ushbu murakkab pedagogik muammo ketma-ket hal etiladi: birinchi bosqichda - talabaning o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini va qobiliyatini shakllantirish orqali, keyingi bosqichda esa ushbu qobiliyatni kuchaytirish va uni maksimal darajada amalga oshirish uchun sharoit yaratish.

Rivojlanish tizimi bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, o'quv fanlari bo'yicha bilimlarni mustaqil anglash usullarini ham ta'minlashi kerak. Shundagina bu bilimlar mustaqil bilim faoliyatini amalga oshirish jarayonida qobiliyatlarni rivojlantirishga, shuningdek ta'lim mazmuni va jarayoniga hissiy va qiymatga asoslangan munosabatni ta'minlashga, shaxsning gumanistik yo'nalishini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv axborot xavfsizligi dars jarayoni faoliyatiga ijodiy munosabatni tarbiyalaydi, umumiy ta'lim ko'nikmalarini shakllantiradi, fikrlash vositalari va usullarini o'zlashtirishga yordam beradi, tasavvur, e'tibor, xotirani, irodani rivojlantiradi, hissiy madaniyat va muomala madaniyatini shakllantiradi. Talabalarga mustahkam bilim berish asosini berishi kerak. Bilim fikrlash orqali o'zgaradi va shu ma'noda u fikrlashni rivojlantirish vositasidir.

Zamonaviy dunyoda axborot iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatning asosiy boyligidan biri bo'lgan strategik manbaga aylanmoqda. Mamlakatimizda axborotlashtirishning tez sur'atlar bilan yaxshilanishi, uning shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarining barcha sohalariga kirib borishi, shubhasiz afzalliklardan tashqari, bir qator muhim muammolarning paydo bo'lishiga olib keldi va bu borada dars jarayonlarida rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini axborot xavfsizligi fani doirasida qo'llash orqali yaxshi natijalarga erishmoqdamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. U.Begimqulov, SH.Sharipov, M.Mamarajabov, S.Tursunov, A.To'ychiev. Elektron axborot-talim resurslarini yaratish va joriy etish. Metodik qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU.2011y. -236 b.
2. Давидов В. В. Проблемы развивающего обучения – М.: Директ-Медиа, 2008. - 613 с.